



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/2-сон



МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Соҳибназар Каримов Тасаввуф таълимотида тарбия хизмати масаласи	5
Diyor Haqberdievich Xolmamatov Ulgurji savdoni iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar	11
Shohida Kamoliddin qizi Jo‘raboyeva Eksport salohiyati tushunchasining konseptual asoslari	15
Rustam Nuridinovich Jiyamuratov Hududiy eksport salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlar	22
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Ziyobidin Shaminovich Suvonov Sun‘iy intellekt va uning imkoniyatlari	27
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Фарход Бахриддинович Ахроров Ўзбекистонда ер ресурсларини баҳолашнинг экологик-иқтисодий услубияти	31
Shexroza Madjitovna Karimova Qovoq – funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo	36
ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Феруза Асатовна Ишонкулова Необходимые условия для успешной деятельности предпринимательства в Республике Узбекистан	39
Rahmatillo Miralimovich Egamov, Rushona Sheraliyevna Husainova Hududiy iqtisodiyotning rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni	45
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Сарвар Аюбовна Исхакова Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда тadbirkorlikнинг салоҳиятидан фойдаланиш имкониятлари	49
Zoxid Sobirovich Axmedov Transport logistikasi xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlarning qo‘llanilishi	53
Обид Мамаюнович Пардаев Хизмат кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш ҳисобига маҳаллалар ободлигини таъминлаш масалалари	57
Фарход Анварович Сафаров Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг комплекс стратегик таҳлилинини TOWS-матрицаси ёрдамида амалга ошириш имкониятлари	60
Orzujon Mamasoliyevich Rajabov Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	65
Bekzod Maxsudovich Abdumannonov Ekologik toza jamoat transportidan samarali foydalanish – avtomobillar tirbandligini bartaraf etishning kafolatidir	70

<p>Ш.Джурабоева</p> <p>Концептуальные основы понятия экспортного потенциала</p>	<p>Sh.Juraboeva</p> <p>Conceptual basis of the concept of export potential</p>
<p>Аннотация: в данной статье обоснована актуальность повышения экспортного потенциала, а также приводятся мнения ученых, занимающихся вопросами повышения экспортного потенциала и определению сущности и значения таких терминов, как «Потенциал», «Производственный потенциал», «Экономический потенциал» и «Экспортный потенциал», а также на основе их теоретического анализа сформулировано авторское мнение.</p> <p>Ключевые слова: потенциал, производственный потенциал, экономический потенциал, экспорт, объем экспорта, экспортный потенциал, частный экспортный потенциал, общий экспортный потенциал, ресурс, конкуренция, доход.</p>	<p>Abstract: this article substantiates the relevance of increasing export potential, and also provides the opinions of scientists involved in increasing export potential and determining the essence and meaning of such terms as “Potential”, “Production potential”, “Economic potential” and “Export potential”, as well as based on their theoretical analysis, the author's opinion is formulated.</p> <p>Keywords: potential, production potential, economic potential, exports, export volume, export potential, private export potential, total export potential, resource, competition, income.</p>

Rustam Nuridinovich Jiyamuratov – Samarqand iqtisodiyot va servis institutini tayanch doktoranti

HUDUDIY EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHGA OID NAZARIY YONDASHUVLAR

<p>Annotasiya: mazkur maqolada hududiy eksport salohiyatining asosiy tarkibiy qismlari, hududiy eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar tahlili hamda muallif tomonidan hududiy eksport salohiyatini oshirishning konseptual modeli keltirilgan.</p> <p>Kalit so'zlar: eksport salohiyati, hudud eksport salohiyati, xomashyo resurslari, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, innovatsion faoliyat, institutsional faoliyat.</p>

Kirish. Hududning iqtisodiy salohiyati tarkibiy elementlarini sanoat ishlab chiqarish, mehnat resurslari, tabiiy resurslar, infratuzilma, investitsion, ilmiy-texnikaviy va innovatsion faoliyatlar tashkil etadi. Hududning eksport salohiyati hudud iqtisodiy salohiyatining tarkibiy elementlari bilan o'zaro hamkorlikda ta'minlanadi. Eksport salohiyati iqtisodiy salohiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Umuman olganda “salohiyat” tushunchasining lug'aviy ma'nosi lotincha “potentia” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, quvvat, kuch, imkoniyat degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu tushunchaning mazmuniga turlicha yondashuvlar mavjud. Lekin ko'p hollarda bu tushuncha har qanday sohada mavjud vositalar va imkoniyatlar to'plami sifatida qaraladi. L.I.Abalkin ta'rifiga ko'ra, salohiyat – bu joy va vaqt bilan bog'liq bo'lgan resurslarning umumlashtirilgan, jamoaviy tavsifidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda salohiyat tushunchasi “eksport salohiyati” tushunchasi bilan bog'liq. Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha “eksport salohiyati” tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida XX asrning 90-yillarning boshlarida ilmiy muomalaga kirib kelgan. “Eksport salohiyati” tushunchasi davlat, hudud, sanoat va biznes yurituvchi subyektlar darajasida qo'llaniladi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida “eksport salohiyati” tushunchasi aniq bir korxonaga nisbatan “korxonaning eksport salohiyati”, iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga nisbatan “tarmoq va soha eksport salohiyati”, aniq bir hududga nisbatan “hududiy eksport salohiyati” va mamlakatga nisbatan “mamlakat eksport salohiyati” foydalanib kelinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda “eksport salohiyati” tushunchasining turli talqinlari mavjud. B.A.Rayzberg, L.Sh.Lofovskiy, Ye.B.Starodubsevalar o'zlarining zamonaviy iqtisodiyot lug'atida “eksport salohiyati – bu raqobatbardosh tovarlarni zarur miqdorda ishlab chiqarish va eksport qilish imkoniyati” deb ta'riflashgan. Mazkur ta'rifda eksport salohiyati tovar raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq ekanligiga urg'u berilmoqda. Haqiqatan ham tovar raqobatbardoshligi eksport salohiyatini belgilab beruvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Lekin eksport salohiyati faqat tovar raqobatbardoshligi bilan aniqlanadigan faoliyat emas.

A.A.Malsev, Yu.A.Savinov, V.A.Oreshkin, A.A.Lebedevlar “eksport salohiyat” tushunchasini mahsulot ishlab chiqarish, ularni tashqi bozorlarga chiqarish, sotish va sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatishni tavsiflovchi kompleks ko‘rsatkich sifatida talqin qilishgan. Bu yondashuvda eksport salohiyati mahsulotni tashqi bozorga yetkazib berish, sotish va sotuvdan keyingi xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liqligiga e‘tibor qaratilganligi sababli ham ahamiyatli hisoblanadi. Chunki, eksport salohiyati tashqi bozorda mahsulot sotish ko‘rsatkichlari orqali ham aniqlanadi.

M.E.Seyfullayeva va V.M.Kapisinlar xomashyo-resurslar bazasi va iqtisodiyotning holati birgalikda hududning ilmiy-texnikaviy, texnologik va ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlaydi, bu esa eksport salohiyatini ham belgilaydi degan ilmiy qarashni ilgari suradi. Ushbu yondashuv yanada kengroq bo‘lib, eksport salohiyati ilmiy-texnikaviy, texnologik va ijtimoiy rivojlanish kabi ko‘rsatkichlar orqali aniqlanishiga e‘tibor qaratilgan.

Yu.A.Savinov va A.Yu.Migunovlar “eksport salohiyati” tushunchasiga kengroq va to‘liqroq tavsif berishgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra eksport salohiyati, birinchidan, eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi barcha subyektlarning (butun milliy iqtisodiyot, uning tarmoqlari, sohalari, kompaniyalar, korxonalar) eksport ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, ularning qarashlari bo‘yicha nafaqat raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, balki ularni tashqi bozorlarda sotish imkoniyati bilan ham bog‘liq. Uchinchidan, mualliflar hududning eksport salohiyatini rivojlantirishga tashqi va ichki omillarning ta‘sirini nazarda tutuvchi milliy raqobatdosh ustunliklarni hisobga olish lozimligini ta‘kidlashadi.

Hudud eksport salohiyati murakkab va kompleks tushuncha hisoblanadi. Hududning eksport salohiyati mazmunining nazariy masalalari bo‘yicha mahalliy, MDH va xorijiy tadqiqotchilarning bir qator ilmiy ishlari mavjud. Ilmiy tadqiqot ishlarida “hududiy eksport salohiyati” hududiy korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati, hududiy iqtisodiy faoliyatni shakllantirish hamda hududlarning iqtisodiy o‘sishi bilan bog‘liqligiga asosiy e‘tibor qaratilgan.

Hududning eksport salohiyatidan samarali foydalanish va rivojlantirishning dolzarbligi ortib borayotganligidan kelib chiqib, bu borada ilmiy tadqiqotlar ham jadal sur‘atlar bilan olib borilmoqda. Aksariyat olib borilgan ilmiy ishlarda hududning eksport salohiyati hududning mavjud ishlab chiqarish resurslari va mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlari sifatida o‘rganilgan. L.M.Marchenkova, I.B.Ilyuxinalarning ilmiy tadqiqot ishlarida hududning eksport salohiyati “korxonalar, tarmoqlar va umuman hudud iqtisodiyotining bozor munosabatlari, iqtisodiy rivojlanishning mavjud darajasida tashqi bozorlarda raqobatbardosh tovar va xizmatlarni sotish imkoniyatlari hamda eksportni tashkiliy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash tizimi” kabi omillar bilan bog‘liqligini ta‘kidlab o‘tishgan.

Yu.V.Gaponenko ilmiy izlanishlarida hududning eksport salohiyati tashqi bozorga mo‘ljallangan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish imkoniyati bilan aniqlanishini inkor etmasdan, hududning eksport salohiyatini tahlil qilishda uning ierarxik tuzilishini hisobga olish kerakligini ta‘kidlaydi. Yu.V.Gaponenko hududning eksport salohiyatini uch darajada aniqlashni taklif etgan:

- birinchi darajada eksport qilinadigan mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonalar va uning ishlab chiqarish salohiyati;
- ikkinchi bosqichda mahsulotni sotish va sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatish tizimi;
- uchinchi bosqichda hududning tashqi iqtisodiy faoliyati kompleksi.

I.N.Vasyutchenko ilmiy tadqiqotlarida hududning eksport salohiyati uchta komponent, ya‘ni birinchi komponent – iqtisodiy tizim resurslarining yig‘indisi, ikkinchisi – iqtisodiy tizimning jahon bozorida talab qilinadigan tovarlarni ishlab chiqarish imkoniyati, uchinchisi – eksport infratuzilmasini rivojlanish darajasi orqali aniqlanishini tadqiq qilgan. I.N.Vasyutchenko o‘zining tadqiqotlaridan kelib chiqib, hududning eksport salohiyatining tarkibiy qismlari sifatida tashkiliy-boshqaruv, kadrlar, tabiiy resurs, bioiqlim, innovatsion, ishlab chiqarish va investitsiya salohiyati bilan bog‘liqligini tadqiq etgan.


R.M.Pritkov, G.I.Nemirovalar o‘zlarining ilmiy ishlarida hududning eksport salohiyati resurs va xomashyo, ishlab chiqarish, mehnat, moliyaviy, iste‘molchi, infratuzilma, innovatsion va institutsional omillar asosida oshirish mumkinligini o‘rganishgan. G.S.Svetkova, I.G.Svetkova ilmiy ishlarida hududning eksport salohiyati hududning aholisi va ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishning umumiy natijasini aks ettiruvchi inson taraqqiyoti indeksiga ham (HRI) bog‘liq ekanligini tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Hududiy eksport salohiyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni o‘rganish, tahlil qilishda taqqoslash va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanib, ilmiy manbalar o‘rganilgan. Hudud eksport salohiyatining tarkibiy tuzilishini o‘rganishda analiz usuli orqali xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning ishlanmalari tahlil qilingan. O‘rganilgan tahliliy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan hududiy eksport salohiyatini oshirishning konseptual modeli sintez usuli yordamida ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolani yozishda abstrakt-mantiqiy fikrlash, kuzatuv kabi usullardan ham foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra “eksport salohiyati” tushunchasi murakkab va ko‘p omilli tushuncha bo‘lib, “resurslar-zaxiralar-imkoniyatlar” zanjirida hududning ishlab chiqarish va tashqi bozorga mahsulot sotish imkoniyatlarining amaliy qo‘llanilishi bilan bog‘liqdir.

Qozog‘istonlik tadqiqotchi A.Abdimominova o‘zining tadqiqotlarida hududning eksport salohiyati to‘rtta tarkibiy qismdan: moliyaviy, sanoat, bozor va raqobatbardoshlikdan iborat ekanligini tadqiq qilgan. Boshqa tadqiqotchilardan farqli jihatda A.Abdimominova hududning eksport salohiyati bozor salohiyatiga ham bog‘liqligi bo‘yicha qarashlari bilan alohida ajralib turibdi. Haqiqatan ham eksport salohiyati bozor salohiyati bilan ham bog‘liq. A.Abdimominova tomonidan ilgari surilgan hududning eksport salohiyatining tarkibiy tuzilishi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Hudud eksport salohiyatining tarkibiy tuzilishi¹

Hududning eksport salohiyati iqtisodiy salohiyatning ajralmas qismi bo‘lib, uning ishlab chiqarish, mehnat, tabiiy resurslar, infratuzilma, investitsiya, ilmiy-texnikaviy va innovatsion salohiyat bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Hududning eksport salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlarni o‘rganish natijasida o‘zimizning hududning eksport salohiyatini oshirishning konseptual modelini ishlab chiqdik (2-rasm).

Demak, hududning eksport salohiyati quyidagi muhim asosiy tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

¹Abdimomynova A. Development Factors of Export Potential of the Region: Capabilities in Minerals and Infrastructure Sector. Academy of Strategic Management Journal, 2018.



2-rasm. Hududiy eksport salohiyatini oshirishning konseptual modeli¹

- xomashyo resurslari – hududlarda mavjud bo‘lgan tabiiy, mineral resurslar va ularning zaxiralari;
- ishlab chiqarish – hududdagi xomashyo resurslarni qayta ishlash darajasi, hududdagi korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatining umumiy natijalari;
- mehnat resurslari – hududdagi korxonalar xodimlarining malakasi, bilim darajasi;
- moliyaviy resurslar – hududdagi moliyaviy institutlar, umumiy moliyaviy imkoniyatlar;
- iste’molchilar – ichki va tashqi bozorlarda iste’mol hajmi, talabning xususiyatlari, iste’molchilar xatti-harakatlari;
- infratuzilma – hududning iqtisodiy-geografik joylashuvi, transport-logistika, savdo va servis ko‘rsatish infratuzilmasining faoliyati;
- innovatsion faoliyat – hududda ilmiy tadqiqot faoliyatini ravnaqi va ilmiy texnika yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyati;
- institutsional – hududda bozor iqtisodiyoti yetakchi institutlarining rivojlanish darajasi, bozor tamoyillarining amal qilishi, mulkchilik shakllari, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.

Xulosa va takliflar. Hududiy eksport salohiyati – bu murakkab iqtisodiy tizim sifatida muayyan hududning ichki va tashqi iqtisodiy faoliyatining barcha elementlarini o‘z ichiga oladigan jarayondir. Hududning eksport faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nafaqat ushbu faoliyatni yaxshilashga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish, balki uni qo‘llab-quvvatlash kerak. O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va hududlarning eksport salohiyatini rivojlantirishni qat’iy vertikal boshqarish amaliyotidan iqtisodiy munosabatlar subyektlarining operatsion va iqtisodiy mustaqilligiga o‘tilishi natijasida ushbu yondashuvni amalga oshirish zarurati paydo bo‘ldi.

Hududiy eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1) Har bir hududning tabiiy resurslari, sanoat ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kelib chiqib infratuzilmani, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, jahon bozorida raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarish bo‘yicha hududiy eksportni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

2) Hududning eksport salohiyatiga ham ichki, ham xalqaro omillar ta’sir qiladi. Hududning eksport salohiyatiga ta’sir qiluvchi omillarni alohida o‘rganish bo‘yicha marketing tadqiqotlari tashkil etish lozim. Marketing tadqiqotlari natijasidan kelib chiqib, hudud eksportini

¹ Muallif ishlanmasi.

rivojlantirish bo‘yicha marketing strategiyalarini ishlab chiqish kerak.

3) Hududning eksport salohiyatini baholashda hududlarda mavjud bo‘lgan kichik sanoat zonalari, erkin iqtisodiy zonalarning hudud eksport salohiyatiga ta‘sirini aniqlash uslubiylatini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Васютченко И.Н. Система показателей оценки экспортного потенциала региона // Региональная экономика: теория и практика. 2010. № 21 (156). С. 40-46.
2. Гапоненко Ю.В. Уровень развития экспортного потенциала региона и методические аспекты его оценки // Вестник Волгоградского государственного университета. Сер. 10, Иннов. деят. 2013. № 2 (9) С. 16-20.
3. Мальцев А.А. Государственное регулирование внешнеэкономической деятельности в Российской Федерации: курс лекций. Екатеринбург, 2006. 453 с.
4. Марченкова Л. М., Илюхина И. Б. Развитие экспортного потенциала российских регионов // Экономическая среда, 2013, № 4 (6). С. 133-138. [Электронный ресурс]: URL: http://unctad.org/en/PublicationsLibrary/wir2013_en.pdf
5. Николаев М.А., Махотаева М.Ю. Формирование экспортного потенциала региона. «Экономика, право и управление». 6/2017 3-11 с.
6. Прытков Р.М., Немирова Г.И. Формирование и развитие экспортного потенциала региона // Вестник ОГУ № 13 (132) /декабрь 2011. С. 387-393.
7. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. М.: ИНФРА-М, 2012. 512 с.
8. Савинов Ю.А., Орешкин В.А., Лебедев А.А. Экспортный потенциал отрасли по разработке и сбыту информационно-коммуникационных технологий // Российский внешнеэкономический вестник. 2013. № 6. С. 28 – 40
9. Савинов Ю.А., Мигунов А.Ю. Государственная финансовая поддержка экспорта в России // Российский внешнеэкономический рынок. 2008. № 5. С. 30 – 37.
10. Савельев Игорь Игоревич. Развитие экспортного потенциала региона. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Владимир 2011, 9-10 с.
11. Сапир Е.В., Шмураткина А.Г. Институциональный механизм повышения экспортного потенциала региона. Проблемы экономики. 2019, 169-176
12. Сейфуллаева М.Э. Капицын В.М. Экспортный потенциал российских регионов в условиях глобализации мировой экономики // Регион. 2006. № 3. С. 93 – 111
13. Цветкова Г. С., Цветкова И. Г. Республика Марий Эл в зеркале международных показателей // Вестник Марийского государственного университета. 2016. Т. 2. № 3 92 (7). С. 90-95.
14. Wu Yanrui (2003): “Export Potential and Its Determinants among the Chinese Regions”, School of Economics and Commerce, University of Western Australia, 35 Stirling Highway, Crawley WA 6009, Australia.

<p>Р.Джиямуратов</p> <p>Теоретические подходы к повышению регионального экспортного потенциала</p> <p>Аннотация: в статье представлены основные составляющие регионального экспортного потенциала, анализ научно-теоретических взглядов на повышение регионального экспортного потенциала, а также авторская концептуальная модель повышения регионального экспортного потенциала.</p> <p>Ключевые слова: экспортный потенциал, региональный экспортный потенциал, сырьевые ресурсы, трудовые ресурсы, финансовые ресурсы, инновационная активность, институциональная деятельность</p>	<p>R.Jiyamuratov</p> <p>Theoretical approaches to increasing the regional export potential</p> <p>Abstract: this article presents the main components of the regional export potential, the analysis of scientific and theoretical views on increasing the regional export potential, and the author's conceptual model of increasing the regional export potential.</p> <p>Keywords: export potential, regional export potential, raw material resources, labor resources, financial resources, innovative activity, institutional activity.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

27.05.2024 йилда теришга берилди. 14.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.